

**O‘ZBEKISTON RESPUBLİKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

5111200 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr

ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi

PO‘LATOVA SHAHNOZAning

«UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA ZAVQIY IJODINI

O‘RGATISH»

mavzusidagi

BITIRUV – MALAKAVIY ISHI

NUKUS – 2016

Malakaviy bitiruv ishi Nukus DPI O'zbek adabiyoti kafedrası
yig'ilishida himoyaga tavsiya qilindi:

Fakulteti dekani:	f.f.n.dots. G. Qurbaniyazov
Kafedra mudiri:	f.f.n. S.Matyakupov
Ilmiy rahbar:	f.f.n. F.Solayev Y.Madrimova
Bitiruvchi:	Sh.Po'latova

Po'latova Shahnozaning «Umumta'lim maktablarida Zavqiy ijodini o'rgatish» mavzusidagi malakaviy-bitiruv ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «____» ball («____%») qo'yildi.

«____»_____ 2016- yil

MUNDARIJA:

I.bob. Zavqiy hayoti va ijodi

1.1. Zavqiy ijodi o'rganilishi tarixidan

1.2. Zavqiy ijodida zamon manzaralari

1.3. Zavqiy vasiyatnomasi haqida

II.bob. Umumta'lim maktablarida Zavqiy ijodini o'rganish

2.1. Adabiyot o'qitish dasturi haqida

2.2. 7-sinfda Zavqiy ijodining o'rganilishi

III bob. 3.1. «Ajab ermas» g'azali tahlili

3.2. Zavqiy hayoti va ijodi bo'yicha asosida bir soatlik dars
ishlanma

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Zavqiy, Zavqiy Xo'qandiy taxalluslari ostida ellik yildan ortiq vaqt mobaynida qalam tebratgan Ubaydullo XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragi o'zbek adabiy muhitida keng shuhrat qozongan, zamondosh ijodkorlar va ilg'or ziyolilar tomonidan noyob iste'dod sohibi deb tan olingan, xalq muhabbatiga sazovor bo'lgan. Bejiz emaski, Zokirjon Furqat o'zining ijodkor sifatida kamol topishida katta ta'sir ko'rsatgan «fozil va rasotab'lar» jumlasida Zavqiyning ham nomini hurmat bilan tilga oladi. «Alarning suhbatidin ko'p bahralar topdim», - deb yozadi o'z esdaliklarida. Furqat guvohligiga ko'ra, Zavqiy Muhyi va Muqimiy kabi yirik namoyandalar qatorida zamonasining eng ilg'or va faol ijodkori sifatida adabiy harakatchilikning yetakchilaridan bo'lgan. «Va asr shuarolarikim, chunonchi, mavlono Muhyi va mavlono Muqimiy va mavlono Zavqiy va mavlono Nisbatdurlar, hamisha majlis bunyod aylab, zodai tab'larimizdin mushoara qilur erduk va bir g'azalda tatabbu' ko'rguzub, bir mazmun har nav' ifoda topar erdi».

Shu ham e'tiborga loyiqki, oddiy xalq orasida Zavqiy iste'dodli shoir, o'tkirzabon hajvchi sifatidagina emas, balki, ayni zamonda, halol va diyonatli kosib, iymon-e'tiqodi but, to'g'riso'z va dovyurak, islomiy bilimlardan yaxshi xabardor inson sifatida ham obro' qozongan. Zavqiy eshon, Zavqiy xoji deb hurmat bilan tilga olingan.

Ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat va chin insoniy fazilatlar madhida qator har jihatdan yetuk g'azal, muxammaslar yaratgan Ubaydullo Zavqiy uzbek adabiyoti tarixidan kuchli hajvgo'y va quvnoq yumorist sifatida ko'rinarli o'rin egallaydi. U Muqimiy va Muhyi, Zoriy va Muhayyir, Nodim va Pisandiylar qatorida milliy adabiyotimizda ijtimoiy va ijtimoiy-siyosiy hajviyotning taraqqiy etishiga jiddiy hissa qo'shdi.

Bo'lajak shoir Ubaydullo Qo'qon shahrining Shayxon guzarida 1853 yilda Usta Solih nomli mahsido'z oilasida dunyoga keldi. Yoshligidanoq ota kasbini pishiq egallagan ziyrak o'g'li tabiatidagi ilmga, xususan, she'riyatga bo'lgan katta qiziqish va qobiliyatni ko'rgan Usta Solih va savdogar tog'asi uning tarbiyasiga

jiddiy ahamiyat beradi, moddiy qiyinchiliklarga qaramay, avvaliga mahalliy maktabda, uni tugatgach, “Madrasai Oliy” va “Madrasai Chalpak” da o’qitadi. Ubaydullo ma’lum muddat Qo’qon boylaridan biri Mo’minjon qo’lida mirzalik qiladi va xizmat taqozosiga ko’ra Xo’jand, Buxoro, Samarqand, O’sh, Andijon, Marg’ilon va Toshkent shaharlarida bo’ladi.

Madrasa ta’limi va tinimsiz shaxsiy mutolaa Ubaydullo iste’dodining kamol topishi, arab va fors tillarini mukammal egallashi Sharq adabiyotining buyuk namoyandalari ijodiy meroslarini chuqur o’rganishi uchun mustahkam zamin bo’ldi. Madrasada o’qish yillarida birinchi she’riy mashqlarini yozgan Zavqiy tez orada Qo’qon adabiy muhitining Muqimiy, Muhyi, Furqat. Myhayyir, Nodim, Zoriy, Rojiy kabi ilg’or fikrli ijodkorlari davrasiga kelib qo’shiladi, ular bilan mustahkam ijodiy hamkorlik o’rnatadi.

Zavqiy mamlakatimiz tarixi va xalqimiz hayotida jiddiy ijtimoiy-siyosiy voqealar yuz bergan suronli bir davrda yashab, qalam tebratgan ijodkorlardan biridir. U o’z hayotida chor Rossiyasining qurol kuchi bilan yurtimizni mustamlakaga aylantirgani va buning oqibatida mehnatkash omma ahvoli yanada og’irlashib, zulm va zo’ravonlik kuchaygani, inson qadru qimmatini, erki-sharafi toptalganining jonli guvohi bo’ldi. Shoir XX asr boshlari, xususan, u o’ninchi-yigirmanchi yillarida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi jiddiy o’zgarishlar, qonli inqilob-to’ntarishlar, zulm, qahatchilik va adolatsizliklarga qarshi xalq harakatlarini o’z ko’zi bilan kuzatdi; madaniy-ma’naviy hayotdagi siljishlarni, hurriyat va zamonaviy ma’rifiy g’oyalarning omma ongiga singib borishini mushohada etdi, davr adabiy hayotida faol qatnashib, dolzarb mavzularni tarixan haqqoniy ifodalashga intildi.

Shoir sifatida tanila boshlaganiga qaramay, Ubaydullo to umrining oxiriga qadar mahsido’zlik hunarini tashlamadi. Avvaliga Madrasa **hujralaridan** birida, keyinchalik esa, bozor rastasida ochgan kichik do’konida kosibchilik qilib, ota-onasiga qarashdi, o’z oilasini tebratdi. Bu hunar, ayni zamonda, Zavqiyning oddiy xalq, ezilgan tabaqa bilan hamnafas yashab, kambag’al kishilarning turmush

sharoiti va orzu-intilishlari, dardu hasratlari va quvonchu tashvishlaridan bevosita xabardor bo'lishida juda qo'l kelgan. Xuddi shu haqiqatni nazarda tutib:

Do'konda kosiblik ishim,

El birladur yozu qishim!-

deb yozgan shoir o'zini ochiqdan-ochiq oddiy mehnatkash tabaqaning, o'zi tengi mayda hunarmandlarning nomidan qalam tebratuvchi deb ta'kidlaydi.

Zavqiy ijodining sof xalqchil mohiyatini tasdiqlovchi bunday mazmun, jumladan, hayqiriq, -xitob ohangi jaranglab, turgan mana bu misrada ham:

Zavqiy kosiblar tilidan kimga arzu dod etar?!

Shuningdek, o'z iborasi bilan aytganda, «bechora xalq» dardu hasratlarini sharxlab she'r yozganligini ta'kidlovchi quyidagi baytda ham to'la-to'kis yuzaga chiqqan:

Uy pulidin xat aro so'zladi bechora xalq,

Zavqiy Xo'qandiy dedi unga javob, uy puli.

Bu har ikkala misol shoirning joriy mustamlaka tuzumidagi ayanchli hayot, avj olgan zo'ravonlik va hukmron adolatsizlik, xalqni xonavayron etuvchi son-sanoqsiz soliqlarning ofat ekanligini jonli lavhalarda ifodalagan «Uy puli» va «Zolim puli» deb yuritiluvchi tanqidiy- hajviy she'rlaridan olindi.

Shoirning "bechora xalq"qa o'zini yaqin tutib, uning bir vakili deb bilishi bejiz emas. Gap shundaki, Zavqiyning hayot tarzi, yashash sharoiti barcha kosiblar, umuman, mehnat ahli hayoti kabi nihoyatda og'ir kechdi. Muntazam ravishda muhtojlik, nochorlik azoblari ostida yashagan, «eski buzuq xarobada chug'zdek ayladim vatan, bir tuzuk oshyon yo'q» deb nola tortgan shoir ijodida mustamlaka tuzumi, joriy adolatsizlik, zo'ravonlik tartib-qoidalaridan shikoyat, «shum falak», «nodonsevar zamona», «g'addor dahr» (shoirning o'z ta'rif-iboralari) qilmishlaridan keskin norozilik bosh g'oya darajasiga ko'tarilgan.

Zavqiy XIX asrning 70—80-yillaridayoq chin xalqchil shoir sifatida uzil-kesil shakllanib, davr adabiy hayotida ko'rinarli o'rin egalladi, she'riyat muxlislari orasida shuhrat tutdi, g'azallari xalq hofizlari og'ziga tushdi. O'z ijodiy faoliyatini an'anaviy mavzuda g'azal, muxammaslar yozishdan boshlagan Zavqiy tez orada o'z diqqatini

ijtimoiy mavzularga, davrning dolzarb muammolariga qaratdi, mehnatkash xalq hayoti, shahar va qishloqning ezilgan tabaqasi turmushidan ayanchli lavhalarini haqqoniy badiiy tahlil etishga kirishdi. Mustamlaka voqeligi va ijtimoiy hayotdagi salbiy hodisa-hoatlarga tanqidiy baho-yondashuv, shaxslar faoliyati va tabiatidagi yaramaslik, pastkashlik, nopoklik, firibgarlik kabi illatlarga xajviy munosabat shoir asarlarining yetakchi g'oyaviy mazmuni bo'lib qoldi. O'sha davr milliy adabiyotimizda Muqimiy bosh bo'lgan kuchli hajviy yo'nalishning keng taraqqiy topishida ijodiy faoliyatiga «tinmay shikoyat ila yomonga raqam bitay!» shioriga amal qilgan Zavqiyning xizmatlari juda katta bo'ldi.

Shoirning ijtimoiy mavzudagi va hajviy-tanqidiy ruhdagi qator asarlarida chor mustamlakasiga aylantirilgan o'lka hayotining eng dolzarb muammolari, jumladan, mavjud jamiyatdagi insoniy haq-huquq va moddiy boyliklarga egalik borasida keskin tabaqalanish mavjudligi hamda uning yaqqol ko'rinib turgan salbiy oqibatlarini haqida jiddiy muloxazalar, qat'iy hukm-xulosalar bayon etiladiki, bunday asarlar davr adabiyotida muhim yangilik bo'ldi. Masalan, Zavqiy muxammaslarining birida mavjud tuzum, undagi o'rnatilgan tartib-qoidalar, amaldagi huquq-qonunlar kimning manfaatlariga xizmat qiladi, jamiyatning qaysi tabaqasi zamona va tuzum imtiyozlariga egayu qaysi guruxi butunlay haq-huquqsizlikka mahkum etilgan, qaysi tabaqa shohona hayot kechirib, cheksiz boylik, izzat-ikrom va ayshu ishratdayu, qaysi jamoa ochlik- yalang'ochlik va mashaqqatli mehnat, doimiy muhtojlik va dardu kulfatga mahv qilingan, degan nihoyatda jiddiy ijtimoiy mavzu ko'tarilgan. Shu mohiyatiga ko'ra, shartli ravishda «Zamona kimniki?» deb yuritiluvchi bu muxammasda Zavqiy ilg'or ijtimoiy-siyosiy qarashlari, xalqchil g'oyalarini badiiy yuksak misralarda nihoyatda ta'sirchan va keskin bayon etadi. Chor mustamlakachi ma'muriyati va mahalliy zo'ravonlar hukmron bo'lgan mavjud tuzumda shoirning qat'iy fikricha:

Sen dema ushbu zamonda obro' mulloniki!

Qoldi a'lolar ayoq ostida, so'z - adnoniki!

Sar daraxti mevasin ko'r: zog' ila qarg'oniki!..

Davlatu izzu sharaflar mard bodunyoniki...

Bu zamona g'arch kavush kiygan siliq salloniki!..

Davru davron hamma joyda hokimu mirzoniki!

Yuqoridagilar muxammas bandlaridan olingan misralardir.

Xuddi shu muxammasida jamiyatdagi ikkinchi qutb — ezilgan, haq-huquqlari toptalgan yo'qsil tabaka haqida so'z borganligi Zavqiyning g'oyaviy yuksak mavqeyini ravshan ko'rsatadi. Xalqchil shoir dil-dilidan kuyinib: "Xoh kosib, xoh dehqon qayga borsa bag'ri qon!", "Bekasu bechora so'ziga kishi bermas javob, Shu sababdin bevayu bechoralar bag'ri kabob!" - deya o'sha jamiyatdagi ezilgan ijtimoiy tabaqaning ayanchli hayotini haqqoniy baholaydi.

Mustamlakaga aylantirilgan o'lkadagi hukmron adolatsizlikni tanqidiy tasvirlash mavzuyi Zavqiyning shartli ravishda "Keladur zamona", "Ajab zamona", "Abdurahmon shayton" deb nomlanuvchi yana bir qator she'rlarida ham o'z ifodasini topgan. Chindan ham, "Ko'p qiziq" deb nomlangan she'ridagi mana bu misralar yuqorida keltirilgan namunalar bilan mohiyatan to'la hamohang bo'lib, "Zamonada kimlar xukmron?" - degan savolga lo'nda va dangal javob bo'la oladi:

Har yera borsa so'zi maqbuldur ,

Kimning bor bo'lsa nuqra-tillosi!

Bu jiddiy ijtimoiy mavzu tahlilini davom ettirib, "Dar mazammati zamona" deb sarlavha qo'yilgan asarida Zavqiy: «Bevayu bechora kosiblarga hurmat qolmadi!» — degan umumlashma xulosaga keladi.

Zavqiy she'riyatida jamiyatdagi mexnat ahli-mayda kosib-hunarmandlar hayoti, yashash sharoiti dardu hasratlari mavzuyi boshqa ijodkorlar meroslariga nisbatan ko'rinarli o'rin tutishini ta'kidlash mumkin. O'zi jamiyatning shu ezilgan tabaqasiga mansub bo'lgan Zavqiy doimo zo'r achinish va xayrixohlik bilan bu mavzuni tahlil etadi, shoirning o'z iborasi bilan aytganda, «kosiblar tilidan» so'zlaydi, qalam tebratadi.

Zavqiyning zikr etilgan asarlaridan tashqari, "Bo'l",

"Qarz" radifli, shuningdek, "Hajvi Ahmadxo'ja qozi", 'G'o'daslik boy haqida hajv" deb yuritiluvchi she'rlarida ham mustamlaka tuzumidagi ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik fosh etiladi, chor ma'muriyati va mahalliy hukmdorlarning himoyasida bo'lgan muttaham amaldorlarning kirdikorlari fosh etiladi. Shoirning "Muncha ko'p!" radifli hamda "Ajab

zamonadur, ahhob, bosh qotib qoldi''' misrasi bilan boshlanuvchi muxammaslari XX asr boshlari she'riyatimizdagi eng o'tkir ijtimoiy- tanqidiy asarlar jumlasiga kiradi. Jangovar xitob, dil- dildan chiquvchi xayqiriq, aniq jaranglovchi, ayni zamonda, yurak-bag'irni ezib o'rtovchi kuyunch, alamli iztirob bilan yo'g'-rilgan bu asarlar zaminida ham oddiy Inson qadr-qimmatini masalasi juda keskin ko'tariladi, Insonning erkin, hur yashash, farovon hayot kechirish huquqi mavzuyi badiiy talqin etiladi. Zamonadagi hukmron zo'ravonlik, huquqsizlik, mashaqqatli hayot xalqchil shoir qalbini larzaga soladi, xususan, kambag'al mehnat axlining cheksiz azob-uqubatga, kulfat-xorlikka mahkum etilganligidan qat'iy norozilik tig'day o'tkir har bir misradan o'quvchi ongiga ko'chadi, unda ham o'sha erksiz tuzumga nisbatan nafrat, o'sha nochor ommaga nisbatan achinish va xayrixohlik tuyg'ularini shakllantiradi. Zavqiy yomonlik va yovuzlikni lo'nda va dangal fosh etishda, hajviy nishonning butun **jirkanch** mohiyatini keskin qirralarda ochib tashlashda katta badiiy mahorat ko'rsatadi. Birinchi muxammasga tanlangan «Muncha ko'p!» radifining o'ziga qanchadan- qancha g'oyaviy-badiiy vazifa yuklangan. Ta'kidlash lozimki. bu tashqi jihatdan oddiy va savol-taajjub ohangi mavjud radifda qat'iy hukm, keskin tasdiq hukmron, u chuqur mushohadalar xulosasi sifatida baralla jaranglaydi.

Mavjud ayanchli holatdan chuqur nafratlangan kuyinchak muallifning norozilik to'la adolatli ovozi har bir misra qat-qatiga singib ketgan, shu bois ular jangovar aybnomadek o'qiladi:

Zolim falak bisotida ozor muncha ko'p!

Inson sharaflari nomida xor muncha ko'p!

Har ko'chalarda qashshoq ila zor muncha ko'p!

Tarhi jahon binosida badkor muncha ko'p!

Xo'qand aro baloga giriftor muncha ko'p!

Haqqoniylik, hayotiylik, ijtimoiylik-Zavqiy ijodi, u yaratgan ko'pchilik asarlarning bosh belgisi. Bu xususiyat, xususan, zamonaning dolzarb masalalari, hayotda yuz berayotgan voqea-xodisalarga bag'ishlangan tanqidiy- hajviy yo'nalishdagi she'rlarida juda ravshan yuzaga chiqadi. Bu turkum asarlariga mavzuning o'sha zo'ravonlik va inson sharaflari oyoq osti qiluvchi tartib-

qoidalariga asoslangan tuzumdan olingani, o'z ko'zi bilan ko'rib, yuragi bilan mushohada etgan voqea-hodisalarni, «benomusu beor» shaxslarni qog'oz sahifasiga tushirganini shoir maxsus ta'kidlaydiki, bu juda muhimdir:

Qarg'ishga nishon benomusu beor muncha ko'p!

Aytmay desang, munosibi ash'or muncha ko'p!

Ha, "*munosibi ash'or*" salbiy voqelik Zavqiyning e'tiqodiy-hajviy she'riyatiga nishon bo'lgan.

Zavqiy ijodiy merosida qishloqlar holati, dehqon ahlining mashaqqatli mehnati va ayanchli hayoti mavzuyi ham katta o'rin tutadi. Gap shundaki, shoir Farg'ona vodiysi bo'ylab yakka o'zi, ba'zan esa, Muqimiy bilan birgalikda bir necha bor sayohatlar uyushtiradi. Bunday safarlar qishloqlarning ahvoli, dehqon ahli turmushi, ularning og'ir mehnatlari va nochor kun kechirishlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatini bergan. Bu voqeiy taassurotlar esa Zavqiyning qator asarlarida o'zining badiiy ifodasini topgan. Bu turkumda "qishu yoz, kechayu kunduz mehnatda kuyib" ishlayotgan, "g'amli kuyuk kulchasini ham umrida to'yib yemagan", "oriq, ranggi sariq, qorni ochlikdan shishgan" dehqonlarning ayanchli turmushlari ularga to'la xayrixohlik, hamdardlik ruhida kuchli achinish bilan tasvirlanadi.

ZAVQIY IJODIDA ZAMON MANZARALARI

Ushbu kunlarda tavalludining 150 yilligi yurtimizda keng nishonlanayotgan ardoqli shoirimiz Ubaydulloh Zavqiy o'zbek mumtoz adabiyotining so'nggi yirik vakillaridan biri sifatida tanilgan. Ayni paytda bu mashhur so'z san'atkori XX asr boshlarida bo'y ko'rsatgan yangi o'zbek adabiyotining shakllanishi va taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan qalam ahllaridan biridir.

Gap shundaki, Zavqiy yashab ijod etgan yillar adabiyotimiz tarixidagi o'tish davri edi. Qariyb ming yillik o'zbek mumtoz adabiyoti o'z imkoniyatlarini deyarli ishlatib bo'lib, yagona shakl va mazmundagi yangi adabiyotga o'z o'rnini bo'shatib berayotgan XX asr boshlarida adabiy hayotda ulkan o'zgarishlar ro'y berdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida va XX asr boshlarida o'zbek adabiyotiga jahon adabiyotining ta'siri kuchaydi. Natijada adabiyotimizda dramatik turning dastlabki

namunalari, ilk «ro'mon»lar paydo bo'ldi. Milliy matbuotning shakllanishi o'zbek publitsistikasining taraqqiy topishiga olib keldi. Adabiyotda realizm kuchaydi. Ma'lumki, mumtoz adabiyotimizda asosiy tasvir usuli taxayyul-romantizm edi. Iloxiy va dunyoviy ishqni romantik bo'yoqlarda tasvirlash adiblar ijodida ustun turardi.

To'g'ri, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy kabi hajvg'o'y shoirlar ijodida realistik tasvirga asoslangan she'riy va nasriy asarlar bor edi. Lekin ular adabiyotimizda yetakchi mavqega ega bulmaganini tan olishimiz lozim.

Yangi o'zbek adabiyotining nazariy va amaliy jihatdan asoschilari bo'lmish Behbudiy, Hamza, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Hoji Muin, Ibrohim Davron, Tavallo va boshqa jadid adiblari yozuvchi va shoirlarni realistik asarlar yozib, mazlum xalq dardiga malham bo'lishga chaqirdilar. Ular shunday asarlari bilan chor hukumati istibdodi ostida ezilgan, asoratda yashayotgan millatni asriy jaholat uyqusidan uyg'otmoqqa va unga oqibatda istiqlool sari boshlab boruvchi yo'lni ko'rsatmoqqa axd qilgan edilar. Shu tariqa adabiyotimizda buyuk o'zgarishlar ro'y berdi: yangi-yangi adabiy tur va janrlar paydo bo'ldi, shaklan va mazmunan yangi asarlar yaratildi, ularning tili soddalashib, xalq jonli tiliga yaqinlasha bordi va oqibatda ulardan keng xalq ommasining bahramand bo'lishiga imkoniyatlar ko'paydi. Yangi o'zbek adabiyoti o'zining bir asrlik tarixi mobaynida qay darajada taraqqiy topganligi bugungi kunda barchaga yaxshi ma'lum.

Serqirra ijodkorlardan hisoblangan Ubaydullox Zavqiy adabiy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlardan yaxshi xabardor bo'lgani aniq. U ijodiy faoliyatining dastlabki bosqichida (XIV asrning 70-90 yillari) mumtoz adabiyotimizning eng yaxshi an'alarini davom ettirib she'rlar bitgan bo'lsa, XX asr boshlariga kelib, asosan, yangi adabiyot talablariga mos holda asarlar yaratdi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yangi o'zbek adabiyotida zamonaviy mavzu asosiy o'rinni egalladi. Jadid adiblari xalqning ayanchli turmushini badiiy asarlarida real tasvirlashga intilganlar. Shu yo'l bilan ular xalqning ma'naviy saviyasini oshirishni niyat qilganlar. Ular usha paytlarda aholi orasida urchib

ketgan johilona ishlarga, turli bid'atlarga, qullikka razillikka qarshi o'z asarlarida o't ochganlar. Zamonadagi har bir voqea-hodisaga she'rlari, maqolalari, pyesa va romanlari bilan javob qilganlar.

Zavqiy ham o'z ijodida zamonaviy mavzuni yetakchi qilib olgan qalam ahllaridan. Uning XX asr boshlarida yaratilgan «Ahli rasta hajvi», «Talading baring», «G'o'daslik boy», «Abdurahmon shayton», «Afandilar», «Suv janjali», «Voqelai qozi saylov», «Qahatlik», «Ajab ermas», «Ko'z ochaylik», «Farg'ona», «Rohzan Ergash» kabi she'r va dostonlari fikrimizga yaqqol dalil bo'la oladi. Bu asarlarda xalq hayotining turli manzaralari real tasvirlangan. Ularning ayrimlari hajviy yo'nalishda yozilgan.

Bunday she'rlarda shoir zamondoshlaridan ba'zi bir kimsalarning yaramas kirdikorlarini tasvirlash orqali xalqning taraqqiy topishiga tusqinlik qilayotganlarning hajviy qiyofasini yaratdi. Bu bilan u o'quvchiga saboq berib, ularni ma'naviy kamolotga chaqirgan. Masalan, shoirning "Obid mingboshi haqida hajv" she'rida Qaynar volostining boshlig'i fe'l-atvori va faoliyatidagi illatlar hajv ostiga olinadi. Mingboshining oddiy kishilarga yomon muomalasi, arzgo'y insonlarni ovora qilishi, ularga zulm o'tkazishi sodda, xalqona misralarda tasvirlangan:

Olamda yo'q bunday chapan,

O'glini der: «Bu - nara zan».

Shang'i-shaloq,, ko'p peshdahan,

Bexuda dil ozor ekan.

“Chaqsam chiyon” deb maqtanur,

“Men ko'p yomon deb matanur,

“Umrim piyon” deb maqtanur,

O'z aybiga iqror ekan.

Arz birla ko'p bechoralar,

Bag'ri ezilgan – yoralar,

Borsa, qilur ovvoralar,

Rahm aylamak dushvor ekan.

Shoir mana shunday misralarda Obid mingboshining realistik qiyofasini yaratadi. Bu uning ijtimoiy jasoratidan ham darak beruvchi muhim hujjatdir. Chunki yaramas fe'lli zamondoshining, ayniqsa, amaldorning hajviy portretini yaratish ijodkordan jasorat talab etadi.

«Voqeai qozi saylov» dostonida Qo'qon shahridagi Xo'jand dahasi qoziligi uchun 1909-1910 yillarda bo'lib o'tgan saylovdagi hiyla-nayranglar, hokim Medinskiy va boshqa amaldorlarning poraxo'rliqi, yaramas xulq-atvori bor bo'yicha qalamga olingan. Yoki «Qahatlik» dostonida esa 1916-1917 yillarda Farg'ona vodiysida ro'y bergan qahatchilik balosining daxshatli oqibatlari haqida hikoya qilinadi. Bu asarlarda ham Zavqiy realizmi yaqqol namoyon bo'lgan.

Shoirning mashhur «Ajab ermas», «Ko'z ochaylik» muxammaslari 1917 yil bahorida yaratilgan. Bu she'rlar o'sha yilning boshida oq podsho Nikolay II -ning taxtdan ag'darilgandan so'ng Rossiya imperiyasida yuz bergan voqealarga javob tariqasida bitilgan. Sho'rolar zamonida «Ajab ermas» muxammasi 1916-yilda yozilgan deb hisoblangan va kitobxonga uning 4 bandi ma'lum qilingan. Biroq, qo'qonlik mashhur muallim va olim Po'latjon Qayumov(1885-1964)ning "Tazkirai Qayumiy" asaridan ma'lum bo'lishicha, bu she'r 1917 yilda yaratilgan bo'lib, uning 7-banddagi misralarida o'sha paytdagi vatanparvar ziyolilarimiz tomonidan tuzilgan.

«Sho'roi islomiya» tashkilotining paydo bo'lishidan ta'sirlanishni oqibatida shoir qalbida paydo bo'lgan hissiyotlar, orzu-umidlar ifodalangan, She'rda yurtimizda ro'y berajak islohot va o'zgarshilarga umid bildirilgan, mamlakatimizning istiqbolga erishuvi bashorat qilingan:

O'tib bir qarn, ahhobim, jahon obod ko'rgaysiz.

Jahon ahlini qayg'u qaydidin ozod ko'rgaysiz.

Giriftori alam ermas, hamani shod ko'rgaysiz.

Avalgi o'tganu ketgan ko'ngilda yod ko'rgaysiz...

«Ko'z ochaylik» muxammasida ham Zavqiy Fevral inqilobi bergan imkoniyatlardan keng foydalanishni targ'ib etadi, xalqni ilm-fan sirlarini egallashga, el-yurt ravnaqi uchun mehnat qilishga chorlaydi.

Shoirning zamonaviy voqea-hodisalarga munosabati «Farg’ona» muxammasida ham yaqqol ko’rinadi. Ma’lumki, 1918-yilning fevralida bolsheviklar rahnamoligida qizil askarlar va dashnoqchilar Qo’qon shahrini, xonavayron qildilar, yuz minglab musulmonlarni qirdilar va xo’rladilar.

Jasoratli shoir bu fojiali voqealarga jim qarab tura olmadi. U bu dahshatli voqea-hodisalardan qattiq ta’sirlanib, “Farg’ona” radifli muxammasini yaratdi va unda realistik tasvir asosida quyidagi manzaralarni chizdi:

Eshiting, qissae, man aylayinizhor, Farg’ona,

Kuyub xokistar o’ldi jumlai bozor Farg’ona,

To’lub otash bilan bo’ldi, ko’rung, gulzor Farg’ona,

Chekib ahli bu zolim dastidin ozor Farg’ona,

Musulmonlar ko’ziga emdi bo’ldi tor Farg’ona.

Tarix fanlari doktori S. A’zamxo’jaev «Turkiston muxtoriyati» kitobi (Toshkent, «Ma’naviyat» nashriyoti, 2000 yil)da yozishicha: Qo’qon uch kun mash’al bo’lib yondi. Uylar, gazlama omborlari, mol do’konlari kuyib kul bo’ldi. Eski shaharning uchdan biri to’lik vayron etildi. Qo’qonda dahshatli manzara hosil bo’ldi. Hamma yoqda O’liklar yotibdi. Ularning bir qismi kuyib ketgan (149-bet).

Zavqiyning yuqoridagi misralari tarixchi olimning tarixiy faktlar asosida bildirgan fikrlariga naqadar hamohang. Bu ham shoirning yangi adabiyotimizda asosiy o’rin egallayotgan realizmga sadoqatidan kelib chiqqan deb o’ylaymiz.

Xullas, atoqli so’z san’atkori Ubaydullox Zavqiy o’z ijodida zamonasidagi voqea-hodisalarni real tasvirlab, yangi o’zbek adabiyotimizda realizmning shakllanishi va taraqqiyotiga muhim hissa qo’shdi.

ZAVQIY VASIYATNOMASI

Ubaydullox Muhammadsolix o’g’li Zavqiy o’zining g’oyaviy-badiiy yuksak asarlari bilan adabiyotimiz tarixidan munosib o’rin olgan xalqparvar shoirlarimizdan biridir. Ilmiy izlanishlar natijasida shoirning hali fanga ma’lum bo’lmagan bir qator g’azallari, muvashshahlari, ustoz shoirlardan Navoiy, Fuzuliylarning mashhur g’azallariga bog’lagan muxammaslari, ayrim tarixiy

binolarning qurilishi va vasiyatnomasi qo'lga kiritildi. Quyida mavlono Zavqiy vasiyatnomasi tekstini biroz qisqartirilgan holda taqdim etamiz.

«Ta'rix 1921-yil 6-sentyabrda – 1340- xijriyda 6 muxarram oyida erdiki, Xo'qand shahrini(ng) Qatag'on dahasiga qarashli Xossabofi Bolo maxallalik 68 yashar mullo Ubaydullox xoji Muhammad Solixboy o'g'lidurman, iqrori shar'iy qildim bu jumlagakim, man mukir o'z tarafimdan modom ul-hayot vakili sha'riy va koyim makom o'z nafsim qildim va ba'di mamotim sha'riy kil dim, uz domodim domullo Abdusatshr oxund domullo Olimbobo ugliga shul xususdakim, man mukirni(ng) YAngikurgon bulusiga karashli Karim bobo kishlok flonida - Zavkiyobod knshlogidagi taxmiian ui tanob, chunonchi, kibda tarafi anxorga, kunyurish mazkur vakil mulki, kunbotari roxi om, kutb tarafi kaggta arikga yoiushgon - nishonalari ma'lum mulkimnn xukkomlar ijozatlari bilan oladurgon tolib xaridorga uzul-kesil bay' b1fla sotib, iulidan manum... xu jjatlik karzlarimsh! bsrib, ado kilib, zimmamdan forig Kincy n va manim va(yutimdan keyin, mazkur iuldan ortib kolsa. manum lozimoti vafotlarimga... . sarf va xarj kilsun.

Ushbu vasiyat kilgon joyim.. molimdan deb. mullo Ubaydullox xoji Muxammadsolixboy ugli kulum Kuydum.

Ushbuga guvoxtar: Nazirxon Muxammad xoji ugli. Abdunnazar xoji Normuxammad xoji ugli, mullo Muso Xoji ugli, Kurbonboi Muxammadshoyuf ugli. »

YUkoridagi xujjatdan ma'lum bulishncha, Zavkiynnng YAnpgkufgon volostsh-a karashli Karnmbobo kishlogida un tanobcha meros mulki bulgan. Va<yutndan keyin shu ernn sotshy uchu n vasikada nomp kursatshgan kchsvini sha'rshCH vakil knlgan. Sotilgan erishshg pulidan uzining ma'lum kishilardan olgai karzlarinp \zishni, mobodo, m az kur puldan ortib kolsa. vafoti lozimotlarpga sarflashni vasiyat kilgan. Vaspyatnomada shoir kimlardan necha sum karzdorligini, vafotidankCIUIH utkazilpshi loznm bulgan marosnmlarnn kayd kilgan.

Zavkiynnng kukonlpk marxum shogprdn Iuldoshxon ota Abdurazzokov tomonidan mu zeyga lu tfan sovga kshpngan bu nodaf xujjat 75-inventar rakami bshan saklanadi. Ushshg xajmi 33x22 santimetr bulib, tekst rus fabrika kogoziga

kora snyox bilan shfikrok nasta'lnk xapia bitilgan. Vasnyatnoma sho1fning tabarru k dastxati bulnshp mumkin.

Mu'tabar ilm!sh asarlarda Zavkiynnng may oypda vafot ettanligi kzfsatilgan. Mazkur vasnyatnoma esa 1921 GSH 6 sengyabrda tuzilgan. Demak. sho1f may oppda emas. sentyabr oshuqa yokp u ndan KeiuiHrn oGiardan b1fida d> nsdan utgan bulib chikadp.

Zavyushshyut vaspyatnomasp \nnng shaxsıyatnpn urganishda muxim manba bulib xizmat kshadp

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Karimov I.A.** Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun faravon turmush sharoyiti yaratish asosiy vazifamiz. Xalq so'zi, 2007-yil, 13-fevral
2. **Karimov I.A.** «Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor», T.: 2009 y.
3. **Karimov I.A.** Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch, Toshkent, 2008
4. **Karimov I.A.** O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent-2000,
5. **Karimov I.A.** Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», Toshkent, 1998
6. **Ahmedov S., Qo'chqarov R., Rizaev M.,** Adabiyot. Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua.
7. **Ahmedov S., Tursunov M., R.Qoshqorov R.,** Adabiyot. 6-sinf, O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma. Toshkent, "Ma'naviyat" 2005 y.
8. **Aliev A.** Maktabda yozuvchi uslubini o'rganish. Toshkent: «O'qituvchi», 1977.
9. **Alimuhamedov. R.** Adabiyot o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. Til va adabiyot ta'limi J. – 2008. - №3
10. **Babanskiy Yu.K.** Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. Toshkent. «O'qituvchi» 1990 y.
11. **Dolimov S., Ubaydullayev X., Axmedov K.,** Adabiyot o'qitish metodikasi - T.: «O'qituvchi», 1967 y.
12. **Zunnunov A.S.** «O'zbek adabiyoti metodikasi tarixidan ocherklar» T.: «O'qituvchi» 1937, 1980.
13. **Zunnunov A.Z., Xotamov N., Esonov J., Ibrohimov A.** Adabiyot o'qitish metodikasi T.: «O'qituvchi» 1992 y.
14. **Zunnunov A., A. Aliev** Adabiyotni boshqa ijtimoiy fanlarga bog'lab o'rganish. Toshkent "O'qituvchi" 1982 yil.
15. **Jo'raev Q.,** Adabiyot kabineti va o'qitishda ko'rgazmalilik. Toshkent: «O'qituvchi», 1965 y.
16. **Fozilova X.** O'quvchilarga Zavqiy ijodini zamonaviy texnologiya asosida o'rgatish. Til va adabiyot ta'limi J. – 2005. - №5.

17. **Karimov N., Normatov U.** Adabiyot 5-sinf uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2004
18. **Mirqosimova M.** Adabiy ta'lim metodikasi. –T. 1993
19. **Mirkamolova B.** O'quvchilar bilimini kompyuter yordamida test sinovlaridan o'tkazish. “Til va adabiyot ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar.” Mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman mater. Toshkent TDPU 2006.
20. **Qojiahmedov A., Hasanova A., Fayzullaeva M.,** Vatan adabiyoti 8-sinf uchun darslik majmua. Toshkent, 1992 y.
21. **Qurbonov Sh., Seytxalilov E.** Ta'lim sifatini boshqarish. T.: “Turon-Iqbol”. 2006-yil.
22. **Qo'shnazarova M.** Ona tili mashg'ulotlarida komp'yuterdan foydalanish. // Til va adabiyot ta'limi. – 2001. - №5.
23. **To'xliiev B.** “Adabiyot o'qitish metodikasi” –T, “Yangi asr avlodi” 2006 yil.
24. **Tojiboyev D., Yo'ldasheva A.,** Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, Toshkent, 2009 y.
25. **Tolipov O'. Q., Usmonboyeva M.,** Pedagogik texnologiyalarning tabiiy asoslari, Toshkent, “Fan”, 2006 y.
26. **Yo'ldoshev Q.** Yoniq so'z. Toshkent, 2006 y.
27. **Yo'ldoshev J.** va boshqalar. Zamonaviy dars. T.:2007.
28. **Yo'ldashev Q.** Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O'qituvchi, 1996
29. **Yo'ldashev I., Mirzaximova M.,** «Ona tili va adabiyot»dan noan'anaviy darslar. Metodik qo'llanma, T, 2006 y.
30. **Internet yangiliklari.** Nizomiy nomidaga TDPU Axborot texnologiyalarn va masofaviy o'qitish markazi axborotnomasi. -Toshkent. 2002-2004 yillar. 1-24-sonlar

Web sahifalar

www.ziyonet.uz

www.zyio.uz

www.e-adabiyot.uz

<http://edu.dasso.heliohost.org/1-bulim.php>

<http://www.mahallagzt.uz/uz/news/info/kuch/88/>